

9-10-2019

INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE

Umida Sadullayevna Abdurasulova
Namangan regional in-service and retraining center

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Abdurasulova, Umida Sadullayevna (2019) "INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 7 , Article 45.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss7/45>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Abdurasulova Umida Sadullayevna,
Namangan viloyati XTXQTMOHM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiya, kompetentlik tushunchalari, o'quvchilarda morfologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish usullari va bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik texnologiya, morfologiya, metodlar.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ФОРМИРОВАНИИ МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Абдурасулова Умида Садуллаевна,
преподаватель РЦППКРНО Наманганской области

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие понятия как компетенция, компетентность, методы формирования морфологической компетенции школьников, а также представлены образцы использования инновационных технологий в формировании морфологической компетенции

Ключевые слова: компетенция, компетентность, педагогическая технология, морфология, методы

INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE

Abdurasulova Umida Sadullayevna,
Namangan regional in-service and retraining center

Abstract: In this article it is written about the concept of competence, having competence, ways of improving pupils' morphological competence and using innovational technology.

Key words: competence, having competence, pedagogical technology, morphology, methods.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim[1]. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p qismli, barcha uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqin va izohlari tarkibiga ko'ra va ma'no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tuman. Terminning mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xocca", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda[2].

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash an'anaviy ta'lim maqsadi, mazmunini tubdan o'zgartirib, uning uslub va texnologiyalarini qayta ko'rib chiqishni

taqozo etadi[3]. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullarining juda katta boy merosi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitiladigan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi[4] hisobga olinadi.

Ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'qitishning eng samarali usullaridan foydalanishni, fan o'qituvchilaridan o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni bilishni va ularni o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llay olishni taqozo etadi.

Ta'limda fanlararo bog'lanishdan ko'p foydalaniladi. Bu esa, o'z navbatida, fanlar o'rtasida tarkibiy bog'lanishni mustahkamlash, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning mavzu bo'yicha yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Masalan, 6-sinf ona tili darsida o'quvchilar so'z turkumlari haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlaydilar va mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Mavzu bo'yicha bilim, konikma, malaka hamda kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Mustaqil so'z turkumlari sayyorasi” usuli. *Ushbu usulning maqsadi* o'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa va guruh bo'lib ishlashga, izlanishga, fan bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalarni o'zlashtirishlariga, tayanch tushunchalarga izoh berishda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllanishiga, yordam beradi, geografiya faniga oid bilimlari mustahkamlanadi.

Uni qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

- o'quvchilarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
- bildirilayotgan fikrlarni guruhlar va ularning a'zolari tomonidan asoslanishiga erishish;
- berilgan ma'lumotlarni yanada boyitish asosida o'quvchilarni quvvatlash.

Sinf o'quvchilari 5 guruhga ajratiladi va 5 materik nomi beriladi. Dastlab ushbu materiklar haqida qisman ma'lumot beriladi. Ushbu usul topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishni taqozo etadi, oxir-oqibatda yakuniy natija-yangi bilimlarni o'zlashtirish fikrlar xilma-xilligini yaxlitlash asosida qo'lga kiritiladi.

1-topshiriq.

Mustaqil so'zlar sayyorasida 6 ta materik mavjud ekan. Ulardan birinchisi **“Ot”** deb nomlanar ekan. Sizlar qolgan materiklarni topa olasizmi?

1. Ot
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____

2-topshiriq.



Har bir materikda yashovchilar ma'lum so'roqqa javob bo'lishlari talab etilar ekan. Bu materiklarda davlatlar joylashgan bo'lib, shu davlatlarni va ularning so'roqlarini topishga harakat qilib ko'ring.

I. "Ot" materigidagi davlatlar:

1. Shaxs oti
2. N ___ a oti
3. O' ___ n - j ___ y oti
4. F _____ t - j _____ n oti
5. A ___ q ot
6. M _____ m ot

So'roqlari _____

II. Fe'l materigidagi davlatlar:

1. H _____ t fe'li
2. H ___ t fe'li
3. O' ___ li fe'l
4. O' ___ siz fe'l
5. S _ f fe'l
6. S _____ dosh
7. R _____ dosh
8. H _____ nomi

So'roqlari _____

III. Sifat materigidagi davlatlar:

1. X _____ t sifatlari
2. H ___ m - o' ___ v sifatlari
3. M ___ n - z ___ n sifatlari
4. R _ ng - t ___ sifatlari
5. M ___ a - ___ sifatlari
6. H ___ sifatlari

So'roqlari _____

IV. Son materigidagi davlatlar:

1. M _____ r son
2. S ___ q son
3. D ___ son
4. Ch ___ son
5. J _____ i son
6. T _____ m son
7. K ___ r son

So'roqlari _____

V. Ravish materigidagi davlatlar:

1. H ___ t ravishlari
2. P ___ ravishlari
3. O' ___ n ravishlari
4. M _____ r - d _____ a ravishlari
5. M _____ d - s ___ b ravishlari

So'roqlari _____

VI. Yana qanday materik bor. Uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering. Bu sayyora bizning ona sayyoramizga o'xshaydimi? Qanday o'xshashlik sezdingiz?

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____

Bu usul o'quvchilarni mavzuni chuqur o'lashtirishlariga, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha va aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan geografiya faniga uzviy bog'lagan holda o'rganishlariga, o'quvchilarda morfologik kompetentlikni rivojlantirishga yordam beradi. Qo'llashda o'quvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirganliklari muhim sanaladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tushunchalarini takrorlashga undaydi. Zero, ilm olishda takrorlashning o'ziga xos amaliy ahamiyatini alohida ta'kidlagan Abu Rayhon Beruniy bilim berish turli yo'llar bilan, eng muhimi, o'quvchini toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan o'quvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilimni chuqurlashtira borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi[5].

Xulosa o'rinida shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda nafaqat ularda fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, balki kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, bilim olish yo'llarini egallash va ilm o'rganishga qiziqishtirish kabi jihatlarni nazarda tutadi. O'qituvchi shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib o'z-o'zini namoyon qila olsin. Hozirgi kun ta'limning asosiy talabi ham dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitishdir.

References:

1. Tursunov D.S. Ta'limda kompetensiya va kompetensiyaviy yondashuv.– Navoiy.: "Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2017, 3-b.
2. Butayeva U. Pedagog kadrlarning tanqidiy savodxonlik kompetentligini rivojlantirishga doir // Pedagogika, 2017, 3-son, 2-3-b.
3. Turdiev N. Asadov Yu. Akbarova S. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. O'quv-uslubiy qo'llanma.–Toshkent.: "Niso Poligraf", 2017,4-b.
4. Ziyomhammadov B. Pedagogika.–Toshkent.: "Turon-Iqbol", 2006, 106-b.
5. Turg'unov S va b. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishlash sullari va vositalari.–Toshkent.:2016, 76-b.